


# YANGI O'ZBEKISTON: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM

CONFERENCES.UZ 2023

DAVRIYLI: 2018-2023

DUNYODA BIRINCHI KASHF  
ETILGAN ELEKTR CHIROG'



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORIJY OLIY TA'LIM MUASSASALARI PROFESSOR-O'QITUVCHILARI, YOSH OLIMLAR, DOKTORANTLAR, MAGISTRANTLAR VA IQTIDORLI TALABALAR



TOSHKENT SHAHAR, AMIR  
TEMUR KO'CHASI, PR.1, 2-UY.



+998 97 420 88 81  
+998 94 404 00 00



WWW.TAQIQOT.UZ  
WWW.CONFERENCES.UZ



IYUN  
№53

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:  
ИННОВАЦИЯ, ФАН  
ВА ТАЪЛИМ  
3-ҚИСМ**

---

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:  
ИННОВАЦИИ, НАУКА  
И ОБРАЗОВАНИЕ  
ЧАСТЬ-3**

---

**NEW UZBEKISTAN:  
INNOVATION, SCIENCE  
AND EDUCATION  
PART-3**

**ТОШКЕНТ-2023**





УУК 001 (062)  
КБК 72я43

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” [Тошкент; 2023]

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” мавзусидаги республика 53-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 июнь 2023 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2023. - 14 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Харакатлар стратегияси-дан – Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган етти устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофиқ:– илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истикболдаги режалари тахтил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

#### **1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

#### **2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

#### **3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

#### **4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

#### **5. Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

#### **6. Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

#### **7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Ҳамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



## **8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

## **9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

## **10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Хорижий тиллар факультети ўқув ишлари бўйича декан ўринбосари

## **11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

## **12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

## **13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

## **14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

## **15.Муסיқа ва ҳаёт**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

## **16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

## **17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

## **18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

## **19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, DSc, Тошкент фармацевтика институти, Фармацевтик ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва сифат менежменти кафедраси профессори

## **20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, DSc, Тошкент фармацевтика институти, Фармацевтик ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва сифат менежменти кафедраси профессори

## **21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Проф. Хамидов Муҳаммадхон Ҳамидович «ТИИМСХ»

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

**25.География**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

---

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

**PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шаҳрам Файзиев**

Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР

|   |    |
|---|----|
| <b>1. Nazarov Ismoiljon Baxtiyor o'g'li</b><br>XIX ASARDA MARKAZIY OSIYO DAVLATLARINING GEYOSIYOSATDAGI<br>O'RNI .....  | 7  |
| <b>2. Олимов Улуғбек Нусратулло-уғли</b><br>АРАБ ДАВЛАТЛАРИ ТАДҚИҚОТЛАРИДА ТУРОННИНГ ҚАДИМГИ ДАВР ТАРИХИ<br>(АҲАМОНИЙЛАР ВА ЮНОН-МАКЕДОНЛАРГА ҚАРАМЛИК ДАВРИ) ..... | 9  |
| <b>3. Uzoqov Erkinjon Ernazarovich</b><br>O'RTA OSIYO HUDUDIDA IBTIDOIY JAMOA TUZUMI .....  | 12 |



## ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР

### XIX ASARDA MARKAZIY OSIYO DAVLATLARINING GEYOSIYOSATDAGI O‘RNI

**Nazarov Ismoiljon Baxtiyor o‘g‘li**  
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zMU  
Ijtimoiy fanlar fakulteti  
Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari  
va huquq ta’limi 3-kurs  
tel: +998 994404281  
ismoiljonnazarov3003@gmail.com

**Annotasiya:** Maqolaning asosiy mavzusi Markaziy Osiyoda ikki buyuk davlatlar Rossiya va Buyuk Biritanya o‘rtasida manfaatlararo to‘qnashuv asosida amalga oshirilgan “katta o‘yin” davrdagi vaziyatlarning asil mohiyatini ochishga harakat qilish va uning mazmunini aniqlash. Shu bilan birga, Katta o‘yin davrida amalga oshirilgan jarayonlarni tadqiq qilish hisoblanadi.

**Kalit so‘zlar:** Katta o‘yin, makiavellizm siyosati, Markaziy Osiyo, ekspeditsiya, siyosiy tarix, ijtimoiy tarix.

#### KIRISH.

Davrlar o‘tgani sari tarixning oltin sahifalarini ochish, undagi o‘tmishning va insonlarning siyosiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlarini bilishga ham qiziqish juda ham ortib bormoqda. Markaziy Osiyo davlatlariga nisbatan amalga oshirilgan XIX asrdagi dunyo tarixiga kirgan “katta o‘yin” nomi bilam mashhur bo‘lgan Rossiya va Buyuk Britaniyaning Markaziy Osiyoga nisbatan amalga oshirgan harbiy va savdo- tijoriy harakatlari haqida ham qiziquvchilar va o‘rganuvchilar ham ko‘payib bormoqda. Bu qiziqish albatta odati holdir, chunki Yevropa olimlarini qiziqitirga sharqning bepayon kengliklari o‘z qarida ko‘plab sirli hazinalarni saqlagan chol-u tog‘lari nafaqat Yevropa olimlarining balki yevropalik sarguzasht qiziquvchilarini ham o‘ziga jalb qilgan. Shulardan biri sifatida Red‘yard Kiplinni misol keltirib uning quydagi so‘zlarini keltirsak bo‘ladi: “Endi men Katta o‘yin og‘ushida shimol tomon tobora o‘lislab boraman...”[1]

#### MAVZUNING DOLZARBLIGI VA HOZIRGI HOLAT.

XIX asrning oxirlariga borib Markaziy Osiyo uchun olib borilayotgan katta o‘yin qiziq palasiga chiqdi. “Katta o‘yin” atamasini ilik bor siyosiy atama sifatida XIX asrda ingliz kapitani Artur Konolli qo‘llagan haqida ma’lumotlar bo‘lsada, Red‘yard Kiplin o‘zining “Kim” asarida uni abadiylashtirgan shaxs hisoblanadi. Siyosiy jihatdan muhim hisoblangan Markaziy Osiyo uchun olib borilayotgan shaxmat doskasidagi kurashda ikki qudratli davlatlar Rossiya va Buyuk Biritanya o‘zaro Markaziy Osiyoni bosib olish uchun turli xildagi o‘ziga hos siyosiy o‘yinlar bilan birga, hiyla-nagranglarni ham amalga oshira boshlashdi. Bu hiylalar mazmuni va mohiyatiga ko‘ra usha davrning siyosiy jarayonini va ijtimoiy tarixni bilishimizga ham katta yordam beradi. Ya’ni siyosiy jarayonlarni bilishda qanday o‘rin egallaganligiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, bunda avvalam bor hukmdorlarning va siyosiy boshqaruvdagi shaxslarning davr taqqazosi bilan amalga oshirgan ishlarini o‘rganib bilishimiz mumkin. Ijtimoiy jarayonlardagi vaziyatlarga qaraydigan bo‘lsak, avvalambor aholining XIX asrdagi turmush tarziga buyuk davlatlarning yoki siyosiy boshqaruvning qanday ahamiyati borligini ko‘rishimiz mumkin.

1858-yilning yoz faslida 100 kishilik qo‘shin bilan birga graf Nikolay Ignatyev boshchiligidagi Rossiya elchilari Xiva va Buxoroga keladi. N.Ignatyev boshchiligidagi rus elchilari Xiva va Buxoroga kelishlaridan asosiy maqsad, Xiva va Buxoro davlatlarni iqtisodiy, siyosiy, harbiy va ijtimoiy hayotlarini o‘rganish va shu bilan birgan Xiva va Buxoro hukmdorlari bilan savdo-tijorat ishlarini amalga oshirish ham edi. Ma’lumotlarga qaraganda N.Ignatyev boshchiligidagi rus elchilar



Markaziy Osiyo hududidagi eng qulay geografik obyekt hisoblangan Orol dengizi va Amudaryoni o'rganish va uni xaritaga tushurishni ham maqsad qilishadi va shuning uchun ham bir qancha hiyla amalga oshirishga harakat qilishadi. Bu hiylalardan biri quydagicha edi: “Xiva xoni ularni qabul qilishga rozi bo'lgach, ular organni (damli klavishli cholg'u asbobi) ham o'z ichiga olgan ajoyib sovg'alar bilan shaharga kirib bordi. Sovg'alarining soni va hajmi quruqlikdan olib o'tish uchun juda katta bo'lganligi sababli, kemada avval Orol dengizidan, so'ng Oks (Amudaryo) daryosi orqali olib kelinishi kerak bo'lgandi. Bu yo'nalish esa ularga Oks daryosining quyi qismini o'rganish imkonini berdi”.[2] N.Ignatyev bu orqali Amudaryoning quyi oqimi haqida aniq ma'lumotlarga ega bo'lgan bo'lishi mumkin lekin Xiva xoni Said Muhammadning usha payitdagi aqil-idroki va qattiy siyosiy irodasi bilan N.Ignatyev Amudaryoning yuqori qismiga ekspiditsiyasini davom etira olmadi. Natijada N.Ignatyev Buxoro amirligiga quruqlik orqali borib amir Nasrullo bilan ko'rishib savdo-tijorat bo'yicha kelishuvlar imzolashga erishadi. N.Ignatyev tomonidan amalga oshirilgan bu siyosiy hiyla natijasida Rossiya hukumati anchagina Markaziy Osiyo haqida ma'lumotlarga ega bo'lishdi. Keyinchalik N.Ignatyev Markaziy Osiyo davlatlarida amalga oshirgan ishlari uchun munosib taqdirlanib Osiyoning boshqa davlatlariga ham elchi sifatida jo'natiladi.

N.Ignatyevning keyingi Xitoyda, Turkiyada va boshqa ko'plab davlatlarda amalga oshirgan makiavellizm siyosati Rossiyaga katta yutuqlar olib kelganligiga tarix guvodir. Bu esa o'z-o'rnida, N.Ignatyevning “Katta o'yin”dagi bunday jonbozliklari natijasida Rossiya hukumron doiralarini Markaziy Osiyoda va Uzoq sharqda Buyuk Britaniya va boshqa davlatlardan ustunlikka erishiga olib keldi. Bu davrda amalga oshirilgan ishlarda va siyosatning shaxmat doskasida ikki qudratli davlat asosiy o'yinchi bo'lishsada, lekin Markaziy Osiyo davlatlari ham bu o'yinning o'ziga xos ishtirokchilari edi. To'g'ri bu davrda ko'plab Markaziy Osiyo davlatlari “Katta o'yin” qurboni bo'lishdi, lekin shunday bo'lsada, o'zlarining siyosiy va harbiy potensial kuchlarini ko'rsata olishdi va qaysidir jihatdan bu davlatlarga qanchalik kuchga egaliklarini ko'rsatib qo'yishdi. Bunga misol tariqasida 1714-yildagi Aleksandr Bekovich-Cherkavskiy, 1839-yildagi Perovskiy ekspiditsiyasi va 1842-yildagi ingliz ekspiditsiyachilari hisoblangan Stador va Konalilarning harakatlar natijasiz chiqanligini misol qilib aytishimiz mumkin. Lekin shunday bo'lsada “Katta o'yin” davrida Rossiyaning yoki Buyuk Biritaniyaning hukumdorlar tomonidan tayinlangan ko'plab shaxslarning amalga oshirgan bir qancha ekspiditsiyalar natijasida Afg'oniston, Pomir tog'lari va Markaziy Osiyoning ko'plab geografik hududlari o'rganildi va ilmiy-tadqiqotlar amalga oshirildi. Bu esa o'z natijasida “Katta o'yin”ning ijobiy ko'rinishlaridan bir bo'ldi.

### OLINGAN NATIJALAR TAXLILI.

Maqolaning mavzusi organilayotgan davrda quydagi bir qancha natija va xullosalarni olindi. Ya'ni “Katta o'yin” davrida Markaziy Osiyo davlatlari geografik va iqtisodiy jihatdan o'ziga xos tarixiy darvoza ro'lini o'ynaganligi va bu darvoza o'ziga xos bozor va ishchi kuchiga to'la ekanligi bilan ham ajalarib turishi ma'lum bo'ldi. Shu bilan birgalikda Markaziy Osiyo mintaqasidagi geosiyosiy kurtaklar shu davrda bu mintaqani hartlendga aylanayotganini ko'rsatib berdi.

### XULOSA.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Podshah Rossiyasi va Buyuk Britaniya o'rtasida olib borilgan XIX asrdagi geosiyosiy jarayonlar tarixga o'ziga xos nom bilan yani “Katta o'yin” nomi bilan kirdi. Bu esa o'z navbatida Markaziy Osiyo davlatlarining siyosiy jihatdan, ijtimoiy jihatdan va harbiy jihatdan qanchalik muhim va dunyoning eng asosiy diqqat markazida ekanligini ko'rsatib qo'ydi. Shu bilan birlikda XX asrning oxiridagi geosiyosiy o'zgarishlar Markaziy Osiyo davlatlarining yana bir bor geosiyosiy jarayonda naqadar muhim ekanligini ko'rishimiz uchun ham bu hududni dunyo markazi tomonga tortmoqda.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rudyard Kipling: “Kim” 1901.
2. P.Hopkirk “The Great Game, On Secret Service in High Asia” London. 1990.
3. Karimov I.A Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida I.A.Karimov. – Toshkent O'zbekiston, 1998.
4. A.S.Sagdullayev “O'zbekiston tarix” darslik. Toshkent. “DONISHMAND ZIYOSI” 2021.





## АРАБ ДАВЛАТЛАРИ ТАДҚИҚОТЛАРИДА ТУРОННИНГ ҚАДИМГИ ДАВР ТАРИХИ (АҲАМОНИЙЛАР ВА ЮНОН-МАКЕДОНЛАРГА ҚАРАМЛИК ДАВРИ)

Олимов Улуғбек Нусратулло-уғли

Ўзбекистон ФА Тарих институти

кичик илмий ходими

Телефон: 998(97) 422 83 79

largov1900@gmail.com

**Аннотация:** Қадимги даврда Турон ҳудудига крмб келган Форс подшолиги, Александр Македонский босқини ҳақида маълумотлар еkelтирилган. Араб тадқиқотчиларининг Марказий Осиё қадимги даври тарихига оид хулосалари берилган.

**Калит сўзлар:** Қурш, Томир хотун, Жайхун, Сайхун, Авесто, Салавкийлар.

Қадимги Турон диёри милoddан аввалги VI-IV асрларда Аҳамонийлар империяси таъсири остида бўлган. Бутун Турон ҳудудига нисбатан Аҳамонийлар ўз ҳукмронлигини ўрнатмаган бўлсаларда, асосий ҳудудлар уларнинг қўл остида бўлиб, мамлакатни сатрапликларга бўлиб бошқаришган. Замонавий араб тарихшунослигида Аҳамонийлар даврига оид тадқиқотлар етарлича емас. Улар асосан хорижий (инглиз, француз) тадқиқотчиларнинг бу даврга оид асарларини ўз тилларига таржима қилиб изланиш олиб боришган. Шундай бўлсада, форслар империяси ҳақида бир қанча мақола, монографиялар чоп етган араб тадқиқотчилар мавжуд. Масалан:

Хорис Бастоний. Аҳамонийлар – биринчи форс империяси (نوي نيم خال - روطاربم آل) (ي لوالا ةيسرافال) [1]

Шокир Мажид Шатрий. Қадимги Форс империяси тарихи (رأت خي روطاربم آل) (قم يدق ل) [2]

Ушбу муаллифлардан ташқари бошқа араб тадқиқотчилари ҳам аҳамонийлар империяси тарихига оид кичик-кичик изланишлар олиб боришган. Асосан Хорис Бастоний ва Шокир Шатрийлар бу соҳанинг етакчилари ҳисобланишади. Шокир Шатрийнинг асари Аҳамонийларнинг асосан Ироқдаги бошқаруви тарихига бағишланади. Унда асосан Форс ўлкасидаги илк давлатчилик (Элам, Каёнийлар) давридан бошлаб Аҳамонийлар ҳукмронлигининг сўнгги йилларигача бўлган даврни қамраб олган. Ундан кейинги даврлар ҳам, Александр Македонский босқини, илк ўрта асрлар ҳақида ҳам қимматли маълумотлар учрайди. Китоб фақатгина сиёсий тарихга бағишланмасдан, балки, маданий, иқтисодий ва ижтимоий ҳаёт ҳақида ҳам маълумотларга ега. Қадимги Турон давлатига оид алоҳида қисм келтирилмаган.

Бироқ, аҳамонийларнинг Ўрта Осиё ҳудудини босиб олганликлари ва у ерда ҳам Ироқдаги каби ўхшаш сиёсат юритилганлиги ҳақида қисқа маълумотлар учрайди.

Хорис Бастонийнинг асарида эса Форслар империясининг сиёсий тарихига эътибор қаратилган. Унда ҳам Ўрта Осиё ҳудуди, жумладан қадимги Турон минтақасига оид маълумотлар жуда кам бўлиб, умумий тарих сифатида қайд етилади. Бошқа тиллардан араб тилига таржима қилинган асарларда эса Туроннинг қадимги тарихи батафсилроқ баён етилган.

Муҳим бир жиҳат - форс давлати ҳукмдорлари исmlарининг тўғри таржимаси ҳисобланади. Мисол учун ўзбек тилида Кир деб номланган ҳукмдор аслида араб тилида “Қурш” (شروق) деб аталган. Барча араб тилидаги асарларда айнан “Қурш” сўзи ишлатилади. Шу сабабли Кир сўзи ўзбек тилига хато таржима қилинган. Тарихий шахс номларини тўғри таржима қилиш қилиш ҳам муҳим аҳамият касб этади. Туроннинг қадимги даврига оид атамаларга тўхталадиган бўлсак, улар араб тилида қуйидагича баён етилган:

Массагетлар – اس ماسا سаклар – اس ماسا سаклар – اس ماسا سаклар

2012 йилда америкалик шарқшунос олим Алберт Олмстеднинг “Форс империяси тарихи” [3] асарининг бир қисми араб тилига таржима қилинади. Бу китоб форслар империяси тарихига оид араб тилида батафсил маълумот берадиган кам сонли китоблардан ҳисобланади.

Яна бир таржима асар машҳур француз тарихчиси ва шарқшуноси Пер Брианнинг “Форс империяси энсиклопедияси: Кирдан Искандаргача” [4] асаридир. Асар 2015 йилда араб тилига



таржима қилинган ва бу асардан араб тадқиқотчилари кенг тарзда фойдаланишади. Асарда қадимги давр тарихига оид шахслар ҳаёти баён этилган. Нафақат Аҳамонийлар, балки юнон олимлари ва ҳукмдорлари, қадимги шаҳарларлар ҳақида ҳам маълумотлар мавжуд.

Замонавий даврга келиб, араб давлатларида айнан Аҳамонийлар империяси (Форс империяси) тарихини ёритишда маҳаллий тадқиқотларда хорижий адабиётларни араб тилига таржима қилиш ва уни муомалага киритиш асосий йўналишлардан бирига айланган. Бизга маълум бўлган очик интернет манбаларини қидирганимизда, Аҳамонийлар империясига оид араб тилидаги китобларнинг салмоқли қисми айнан таржималардан (асосан инглиз ва француз) иборат эканлигини кўришимиз мумкин. Ундан кейинги даврлар: Александр Македонский, илк ўрта асрлар даврига оид маълумотларда ҳам шу ҳолат такрорланади. Дунёда 22 та араб давлати борлигини ҳисобга олсак, биздаги хулосалар хато бўлиши ҳам мумкин. Сабаби, барча араб давлатларидаги сўнгги илмий изланишлар ва илмий тадқиқот марказлари ҳақидаги маълумотларни тўлиқ масофадан туриб олиш имконсиздир.

Хулоса қилиш мумкинки, ҳозирги кунда араб тилида араб олимлари томонидан қадимги Форс давлати, жумладан Аҳамонийлар тарихига оид йирик бир тадқиқот олиб борилмаган. Кўплаб давлатлар қатори араб давлатларида ҳам асосий манба сифатида юнон ва рим олимларининг асарлари ва улурнинг таржималари Қадимги дунё тарихи бўйича асосий манба ҳисобланади. Инглиз тили, француз тили ва бошқа Европа тилларидаги асарлар тўғридан-тўғри араб тилига таржима қилиниб, муомалага киритилган.

Фақатгина маълум бир араб давлатига тегишли бўлган тадқиқотчилар эса, Аҳамонийларнинг ўз давлати таъсири доирасида тадқиқотлар олиб борганлар. Юқорида келтириб ўтганимиз, Шокир Шатрий ҳам асосан Ироқ давлатидаги Аҳамонийлар давлати тарихни баён этади. Ўрта Осиё, жумладан Туроннинг қадимги даври тарихи бевосита араб тадқиқотчилари томонидан батафсил ёритилмаган.

#### **Араб тарихшунослигида Туроннинг Юнон-македонларга қарамлик даври тарихшунослиги**

Милоддан аввалги IV асрда Турон ўлкасига Александр Македонский бошчилигидаги юнонлар кириб келади ва минтақада ўз ҳукмронигини ўрнатади. Уларнинг саркардаси Александр вафотидан сўнг эса Турон ҳудудининг катта қисми Салавкийлар давлати таркибига киритилади. Милоддан аввалги III асрда эса Турон диёрида Юнон - Бақтрия ва Парфия давлатлари ташкил топади. Бу давлатлар Турон диёрида мавжуд бўлган даврда минтақада ўзига хос бошқарув усули ва маданияти вужудга келади. Бунда албатта, Туроннинг маҳаллий аҳолиси ва юқорида келтирилган давлатларнинг маданиятлари ўзаро қоришиб, ўзига хос бир маданий ва сиёсий жарёнлар бошланиб кетади. Бу даврлар араб давлатлари тарихшунослигида қисман ўрганилган ва кам тадқиқ қилинган. Юқорида келтирганимиздек, умуман Туроннинг қадимги тарихидаги бошқа даврлар сингари бу давр ҳам араб давлатларида етарлича илмий тадқиқ қилинмаган.

Умуман олганда Александр Македонский араб тилидаги тадқиқотларда 2 хил тарзда берилади:

1. **يُنُودِقْمَلَا رَدْنَكْسَلَا** (Искандар Македонский)
2. **رَبْكَالَا رَدْنَكْسَلَا** (Искандар Буюк)

Самир Имам Абу Шариф, Мустафо Маҳмуд, Султон бин Муҳаммад ал-Қосимий, Раиф Салам Муса, Муҳаммад Комил Хасан каби араб олимлари Александр Македонский тарихи ҳақида мақолалар, монография ва асарлар ёзиб қолдиришган. Уларнинг тадқиқотларига эътибор қаратсак, асосий урғу Александрнинг араб давлатлари ҳудудларига юриши, сиёсий ваизиятга таъсири, унинг олиб борган бош юришлари ҳақида кетади. Айнан шу даврда Қадимги Турон ҳудуди тарихига оид тадқиқотлар учрамайди.

Ундан кейинги “Салавкийлар давлати” даври ҳақида тадқиқот олиб борган олим Хасан Хамза Жавад ҳисобланади. У Боғдод университетида фаолият юритган. Ҳозирги кунда эса Карбало университети профессори ҳисобланади. У “Салавкийлар давлатининг ташкил топиши ва тараққиёти” [5] мавзусида магистрлик диссертациясини ҳимоя қилган. Ундан ташқари Салавкийлар давлати ҳақида бир нечта илмий мақолалар муаллифидир. Салавкийларнинг шаҳарлари ҳақидаги мақоласида [6] Туроннинг қадимги шаҳарлари ҳақида ҳам қисқача маълумотлар берилади. Салавкийлар ҳукмдори Салавк I нинг олтин тангалари ҳақида мақоласи бор. Унда Дажла дарёсидан топилган тангалар ҳақида маълумотлар берилган. Яна бир тадиқоқотида олим Салавкийлар давлати қўшини ҳақида тўхталиб, унда филларнинг



жангларида тутган ўрни ҳақида алоҳида тўхталади. Унинг маълумотларига қараганда Салавкийлар армиясида 500 га яқин филлар бўлган ва доимо жангларида иштирок этган.

Хасан Ҳамза Жаваднинг диссертациясида Туроннинг қадимги даври ҳақида маълумотлар учрайди. Диссертация Боғдодда 2008 йилда ҳимоя қилинган. Унда милoddан аввалги 312 йилдан – 64 йилгача бўлган воқеалар акс эттирилган. Илмий ишда Салавкийлардан олдинги давр ҳақида ҳам маълумотлар учраб, унда Туроннинг қадимги даври маданияти ҳақида қисқа маълумотлар берилади. Жумладан Александр Македонский ва унинг “элленистик” маданияти ва Қадимги Рим маданияти Турон ҳудудига кириб келганлиги ва маҳаллий аҳоли маданияти билан қоришиб кетганлиги ҳақида муаллиф фикр билдиради. Ишнинг фойдаланган адабиётларига назар солсак, асосан қадимги Рим ва юнон тарихчилари, инглиз тилидаги адабиётлар ва илмий ишлардан иборат. Шу сабабли, унинг баъзи бир фикрлари ҳолисона берилмаган. Гўёки, Турон ҳудудидаги шу вақтдаги маданиятнинг асосий яратувчиси Европа маданияти (Юнонистон ва Рим) сифатида келтирилади. Ваҳоланки, милoddан аввалги VIII – VII асрларда Турондаги илк давлатлар ва шаҳарлар (Афросиёб, Ерқўрғон, Кўктепа, Кўзалиқир ва бошқалар) бўлганлиги ва ўз даврида юксак тараққиётга чиққанлиги тарихдан маълум. Диссертациянинг ёзилиш тартиби Александр Македонскийнинг шаҳарларни босиб олиш тартибида берилади. Бундан ташқари Хасан Ҳамза Жавад Александр Македонский томонидан қурилган Турондаги шаҳарларга ҳам тўхталган. Александрия Эсхата (متاخسا آيرونكسلا) ҳақида маълумотларни келтирар экан, бу шаҳар Александрнинг энг шарқий чегараси бўлганлиги ва бу ҳудудларни қийинчиликсиз эгаллаганлиги ҳақида ёзилади. Бу ҳам ҳақиқатга тўғри келмайди. Сабаби маҳаллий аҳоли Александрга қаттиқ қаршилик кўрсатгани, Спитаман бошчилигида унинг кўшинлари мағлубиятга учратилганлиги ҳақида кўплаб маълумотлар сақланиб қолган.

Умуман, Хасан Ҳамза Жаваднинг илмий тадқиқотлари Салавкийлар давлатининг барча соҳалари бўйича олинган бўлсада, унинг Турон тарихига оид қисмлари жуда кам ва саёз. Деярли чуқур таҳлил қилинмаган. Тадқиқот сўнгги йиллардаги илмий ишлар жалб қилинган ҳолда ёзилган бўлсада, Ўзбекистонлик олимларнинг ишлари умуман жалб этилмаган. Шундай бўлсада, муаллиф Туроннинг қадимги даври ҳақида қисман ва оз бўлсада тўхталиб ўтган.

Яна бир араб тадқиқотчиси Муҳаммад Абул Маҳасин Асфур бўлиб у қадимги Шарқ давлатлари тарихи Александр Македонскийгача бўлган даври ҳақида китоб ёзган. Унда ҳам Туроннинг қадимги даври ҳақида қисқача маълумотлар келтирилади.

#### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. ىلوالا ةيسرافلا ةيروطاربم ال - نويني مي خال: ينات سبل ا (Хорис ал-Бастоний. Ахамонийлар – биринчи форс империяси). 2018. 140 бет.
2. ةمي دقل اةيسرافلا ةيروطاربم ال خيرأت : يرطاشل ركاش (Шокир ал-Шатрий. Қадимги форс империяси тарихи) Боғдод. 2017. – 212 б.
3. Albert Olmsted. History of the Persian Empire. Achaemenid Period. Hrsg. George G. Cameron. University of Chicago Press, Chicago, Ill. 1948
4. ردنكس ال اىل شروق نم ةيسرافلا ةيروطاربم ال خيرأت ةخوسوم : رييب ناي رب (Пер Бриан. Форс империяси энсклопедияси: Кирдан Искандаргача. Байрут. 2015. 388 бет)
5. (م.ق 64 312 ةيخيرأت ةسارد) اهم ايقو ةيقلول سل ا ةلودل ةوشن (Ҳасан Ҳамза Жавад. Салавкийлар давлатининг ташкил топиши ва тараққиёти – Магистрлик диссертацияси. Боғдод, 2008. – 391 б.)
6. Ҳасан Ҳамза Жавад. فادهال - تاي اغل - ندمال سيسيأت يف ةيقلول سل ا ةساي سل ا (Салавкийлар давлатининг шаҳарлар ташкил этишдаги сиёсати) / 2020, مولعلا ةلجم.



## O'RTA OSIYO HUDUDIDA IBTIDOIY JAMOA TUZUMI

**Uzoqov Erkinjon Ernazarovich**

Qashqadaryo viloyati G'uzor tumanidagi  
49 - son maktabning tarix fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'rta Osiyo hududlarida ibtidoiy jamoaning shakllanishi, ibtidoiy jamiyat rivojlanishining davrlari haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** O'rta Osiyo, davr, O'zbekiston, Teshiktosh, Toshkent, qurol, tosh.

O'zbekiston hududlari eng qadimgi davrlardan boshlab jahon sivilizatsiyasining o'choqlaridan biri ekanligiga ilmiy jihatdan hech qanday shubha yo'q. O'zbekiston va O'rta Osiyo hududlarida olib borilayotgan keng miqyosdagi tadqiqot ishlarining natijalari ham Vatanimizning jahon sivilizatsiyasida tutgan o'rnini tasdiqlaydi.

O'zbekiston hududlaridagi eng qadimgi odamlarning manzilgohlari Farg'ona vodiysidagi Selung'ur, Toshkent viloyatidagi Ko'lbuloq, Buxorodagi Uchtut makonlaridan topilgan. Bu davr odamlari toshlardan qo'pol qurollar yasab, termachilik va jamoa bo'lib ov qilish bilan shug'ullanishgan.

Ilk paleolit davri odamlari jismoniy jihatdan ham, aqliy jihatdan ham hozirgi odamlardan farq qilishgan. Ular tabiat oldida ojiz bo'lib, unda tayyor bo'lgan mahsulotlarni o'zlashtirganlar. Ular na diniy tushunchani, na dehqonchilikni va na chorvachilikni bilganlar.

O'rta paleolit davriga kelib ibtidoiy jamiyat odamlarining mehnat qurollari takomillashib, turmushida yangi unsurlar paydo bo'la boshlaydi. Eng muhimi, ibtidoiy to'dadan urug'chilik jamoasiga o'tish boshlanadi. Shimoldan ulkan muzlik siljib kelishi natijasida olov kashf etiladi. Odamlar o'choqlar atroflarida to'planib, ibtidoiy turar-joylarga asos soldilar. Jamoa bo'lib ov qilish paydo bo'ldi.

So'nggi paleolit qadimga tosh asrining so'nggi bosqichidir. Bu davrga oid makonlar Ohangarondagi Ko'lbuloq, Toshkentning g'arbidaga Bo'zsuv 1 hamda Samarqand shahridan topilgan. Ulardan topilgan topilmalar orasida qirg'ichlar, kesgichlar, sixchalar, pichoqlar, boltalar kabi qurollar bor. Bu davrga kelib odamlar faqat tog'li hududlarga emas, tekisliklarga ham tarqala boshlaydilar. Bu davrning eng katta yutug'i urug'chilik tuzumiga (matriarxat) o'tilishidir. Mehnat qurollari takomillashib, ularining turlari ko'paya bordi. Shuningdek, bu davr ibtidoiy odamlari orasida dastlabki diniy qarashlar paydo bo'ldi.

Mezolit davri yodgorliklari Surxandaryodagi Machoy g'or makonidan, Markaziy Farg'onaning ko'pgina yodgorliklardan topib o'rganilgan. Bu davrga kelib muzlik yana shimolga qaytadi. Hayvonot va o'simlik dunyosida katta o'zgarishlar sodir bo'ladi. Insoniyat o'z tarixidagi dastlabki murakkab moslama-o'q-yoyni kashf etadi. Mezolit davri qurollari paleolitga nisbatan ixchamligi va sifatligi bilan farq qiladi. Mezolit davri qabilalari asosan ovchilik va termachilik xo'jaligi yuritganlar. Bu davrning oxirlariga kelib, dastlabki uy chorvachiligi yoki hayvonlarni xonakilashtirish boshlanadi.

Neolit davriga kelib, qadimgi qabilalar hayotida katta-katta o'zgarishlar sodir bo'ladi. Bu davr odamlari aksariyat hollarda daryo sohillari va tarmoqlari yoqasida, ko'llar bo'ylarida yashab, tabiiy imkoniyatlardan kelib chiqib baliqchilik va ovchilik yoki dehqonchilik va chorvachilik hamda qisman hunarmandchilik bilan shug'ullanganlar. Bu davrning eng katta yutuqlardan biri kulolchilikning paydo bo'lishidir. Shuningdek, bu davrga kelib to'qimachilik va qayiqsozlik ham paydo bo'ladi.

Eneolit davri makonlari Xitoydan Dunaygacha bo'lgan katta hududda tarqalgan bo'lib, hamma joyda ijtimoiy taraqqiyotning bir xil bosqichi kuzatiladi. O'rta Osiyoda quyidagi yangi tarixiy-madaniy jarayonlar eneolit davri bilan bog'liq: xo'jalikning boshqa hamma turlariga qaraganda haydama dehqonchilikning ustunlik qilishi; toshdan ishlangan qurollar ko'p bo'lgan holda mis qurollarning paydo bo'lishi; katta-katta ibtidoiy jamoalarning paxsadan va xom g'ishtdan tiklangan katta-katta uylari; kulolchilikda muhim texnika yutug'i-xumdonlarning ishlatilishi; turli hayvonlarning loydan yasalgan va ona urug'i (matriarxat) ga xos haykalchalari; rangdor, turli tasvirlar bilan bezatilgan sopol buyumlar mavjudligi.

Eneolit-mis-tosh davrida odamlar dastlabki metall bilan tanishdilar. Bu davrga kelib mis qurollar ancha takomillashgan bo'lsa-da, undan og'ir mehnat qurollari yasashning imkoni yo'q





edi. Misdan asosan uy-ro'zg'or buyumlari, taqinchoqlar va harbiy qurollar yasalgan. Eneolit davri yodgorliklari Buxoro viloyatining Lavlakon, Beshbuloq, Uchtut (mis koni) mavzalaridan, Panjikent atroflaridan (Sarazm madaniyati) topib tekshirilgan. Bu davrga kelib, dehqonchilik O'rta Osiyoning shimoli-sharqiy hududlariga ham yoyiladi.

Hozirga kunda ibtidoiy jamoa tuzumining turli bahslarga sabab bo'layotgan muammolaridan biri antropogenez-odamning paydo bo'lishi va rivojlanishidir. Turli hududlarda qadim zamonlarda yashagan ilg'or mutafakkirlar odamning paydo bo'lishi haqida ilmiy ta'rifga yaqin fikrlarni bayon etganlar. Ular asosan insoniyat hayvonot olamidani ajralib chiqqan degan fikrni bildiradilar. Insonning paydo bo'lishi millionlab yillar davom etgan rivojlangan jarayonining natijasidir.

O'rta tosh davrida, birinchi navbatda mehnat jarayonida inson tafakkurining rivojlanishi natijasida neandertal qiyofasidagi odamlar hozirgi qiyofadagi odamlarga aylana boshladilar. Ular jismoniy jihatdan kamol topib, hozirgi qiyofadagi kishilar vujudga keldi va shu bilan antropogenez jarayoni tugadi (kromanyon ko'rinishidagi odamlar). Bu jarayonning tugashi insoniyat tarixidagi muhim voqea bo'lib, inson dastlab toshdan oddiy to'qmoq yasagan bo'lsa, uzluksiz mehnat, intilish hamda ongining rivojlanishi natijasida yuksak madaniyat yaratish darajasiga yetib keldi.

Janubiy Qozog'istonning tog' va tog'oldi tumanlaridan, Qirg'izistonning tog' vodiylaridan, Janubiy Turkmanistonda, Qizilqum va Qoraqum ichkarisidagi qadimgi ko'llar atrofida, O'zbekistondagi Ohangaron, Chirchiq daryolari vodiylarida, Zarafshon, Surxondaryo, Qashqadaryo vohalari, Farg'ona vodiysi va uning tog'li hududlaridan ibtidoiy jamoa tuzumining barcha davrlariga oid yodgorliklar topilgan. Bu topilmalar O'rta Osiyoni antropogenez jarayoni sodir bo'lgan hududlar sarasiga qo'shish imkonini beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Arsixovskiy A. Arxeologiya asoslari. Toshkent, 1970.
2. Kabirov J, Sagdullayev A. O'rta Osiyo arxeologiyasi. Toshkent, 1990.
3. Muhammadjonov A. Qadimgi Buxoro. Toshkent, 1991.
4. Tolstov S.P. Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab. Toshkent, 1964.

# ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИННОВАЦИЯ, ФАН ВА ТАЪЛИМ 3-ҚИСМ

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусахҳиҳ:** Файзиев Фаррух Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.06.2023

**Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)**  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000